

UDC: 342.9(042)(571.1)
ORCID: 0000-0003-3406-0784

O'ZBEKISTONDA MA'MURIY SUDNING IJRO HOKIMIYATI USTIDAN SUD NAZORATI SUBYEKTI SIFATIDAGI O'RNI: SUDGA TAALLUQLI ISHLAR MISOLIDAGI TAHLIL

Nematov Jo'rabek Nematilloevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrası
dotsenti, yuridik fanlar doktori,
e-mail: jura0404uzb@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining qonunga zid qaror, harakat (harakatsizligi) yuzasidan ma'muriy sudga shikoyat qilish huquqini amalga oshirishning ayrim jihatlari tahlil qilingan. Maqolada ma'muriy sudlar tizimini isloh qilishga qaratilgan qonunchilikdagi o'zgarishlar keltirib o'tilgan. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida ma'muriy sudlar faoliyati bir muncha takomillashtirilishiga erishilgan bo'lsa-da, mazkur maqola doirasida tahlil qilingan ma'muriy sud ishlarini yuritishda sudga taalluqlilik masalasi hali hanuz eng bahsli va munozarali masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shunga ko'ra, maqolada sudga taalluqlilikning eng ko'p uchraydigan huquqiy muammolari tahlil qilingan. Jumladan, maqola doirasida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi, iqtisodiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi, harbiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlarni ajratib olishning asosiy mezonlari ochib berilgan. Sud amaliyotida uchrayotgan ayrim muammoli masalalar yuzasidan ilmiy asoslantirilgan yechimlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy sudlar, sudga taalluqlilik, ma'muriy akt, ma'muriy xatti-harakat (harakatsizlik), ma'muriy tartib-taomillar, ma'muriy sud ishlarini yuritish, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlar, fuqarolik-huquqiy nizo, davlat xizmatiga oid nizolar, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlarni, harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar, davlat ijrochisining qarori (harakatlari, harakatsizligi).

РОЛЬ АДМИНИСТРАТИВНОГО СУДА КАК СУБЪЕКТА СУДЕБНОГО КОНТРОЛЯ НАД ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТЬЮ В УЗБЕКИСТАНЕ: НА ПРИМЕРЕ АНАЛИЗА ПОДВЕДОМСТВЕННОСТИ ДЕЛ

Нематов Журабек Нематиллоевич,
доктор юридических наук, доцент кафедры
"Административное и финансовое право"
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируются некоторые аспекты права физических и юридических лиц на обжалование незаконных решений, действий (бездействий) государственных органов и их должностных лиц в административном суде. В статье приводится анализ изменений в законодательстве, направленных на реформирование системы административных судов. Отмечено, что, хотя реформы привели к некоторым улучшениям в функционировании административных судов, вопрос подведомственности дел в административном судопроизводстве по-прежнему остается одним из самых противоречивых. Соответственно, в статье анализируются наиболее часто встречающиеся правовые вопросы подведомственности дел в административном судопроизводстве. В частности, в статье раскрываются основные критерии разграничения подведомственных дел между административными судами и судами

по гражданским делам, экономическими, военными судами. Предложены научно обоснованные решения некоторых проблемных вопросов, встречающихся в судебной практике.

Ключевые слова: административные суды, подведомственность, административный акт, административное действие (бездействие), административные процедуры, административное судопроизводство, решения, не вытекающие из административных и иных публичных правоотношений, гражданско-правовые споры, споры в сфере государственной службы, дела по спорам, возникающим из административно-правовых отношений, решения органов военного управления и их должностных лиц, споры, возникающие из административно-правовых отношений, решения (действия, бездействие) государственного исполнителя.

THE ROLE OF ADMINISTRATIVE COURT IN UZBEKISTAN AS A SUBJECT OF JUDICIAL CONTROL OVER THE EXECUTIVE POWER: AN ANALYSIS BASED ON THE EXAMPLE OF JURIDICAL CASES

Nematov Jurabek Nematilloevich,

Associate Professor of Administrative and Finance
Law department of the Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. This article analyzes some aspects of the right of individuals and legal entities to appeal to the administrative court against illegal decisions, acts (omissions) of state bodies and their officials. Changes in legislation aimed at reforming the administrative court system were cited in the article. Although the reforms have resulted in some improvements in the functioning of the administrative courts, the issue of jurisdiction in the administrative litigation analyzed in this article is still one of the most controversial issues. Accordingly, the article analyzes the most common legal issues of litigation. In particular, the article reveals the main criteria for distinguishing between civil courts and administrative courts, between economic courts and administrative courts, between military courts and administrative courts. Scientifically based solutions have been proposed for some of the problematic issues encountered in judicial practice.

Keywords: administrative courts, jurisdiction, administrative act, administrative acts (omissions), administrative procedures, administrative litigation, decisions that do not arise from administrative and other public legal relations, civil law disputes, civil service disputes, cases on disputes arising from administrative-legal relations, decisions of military administration bodies and their officials, disputes arising from administrative-legal relations, decisions (acts, omissions) of the state executor.

2017-yil 1-iyundan O'zbekiston tarixida birinchi marotaba fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy sudlardan alohida bo'lgan ma'muriy sudlarning joriy etilishi [1], shuningdek, O'zbekiston tarixida birinchi marotaba 2018-yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining [2], 2018-yil 25-yanvarda esa Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning (MSIYtK) [3] qabul qilinishi bilan O'zbekistonda ma'muriy huquq rivojining mutlaq yangi, muhim bosqichi, davri boshlandi, desak hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Chunki ushbu yangiliklar rivojlangan xorijiy davlatlar standartlari darajasida hamda milliy qonunchilikning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda, ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning eng zamonaviy qoidalarini mamlakatimizda joriy etdi [4].

Ma'muriy sudlar tizimining O'zbekistonda bundan keyin ham takomillashib borishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizda sud-huquq islohotlarini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish va mavjud muammolar yechimini maqsad qilgan "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ham asos bo'lib xizmat qilmoqda [5].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 107-moddasining birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 8-fevraldagi O'RQ-671-sonli Qonuni tahririda o'zgartirildi hamda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O'RQ-703-sonli "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Natijada, viloyat darajasidagi jinoyat, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sudlar umumiy yurisdiksiya sudlari sifatida birlashtirildi. Ma'muriy sudlar esa umumiy yurisdiksiya sudlaridan alohida sudlar sifatida saqlab qolindi.

Shuningdek, O'zbekistonda 2021-yil 1-yanvardan boshlab ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi [6].

Yangi joriy etilgan ma'muriy sudlar, o'z navbatida, nazariy va amaliy jihatdan yangi muammo va ijobiy o'zgarishlarni ham yuzaga keltirdi [7]. Jumladan, mazkur maqola doirasida tahlil qilinadigan ma'muriy sud ishlarini yuritishda sudga taalluqlilik masalasi ham eng bahsli va muhozarali bo'lib qolmoqda. Quyida mazkur muammolarning ayrimlari yuzasidan fikr yuritiladi.

Birinchidan, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlar yuzasidan ham ayrim muammoli jihatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik prosessual kodeksi (FPK) 26-moddasiga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha sudga fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to'g'risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlar taalluqlidir.

E'tibor berish lozimki, FPK 26-moddasidagi yer to'g'risidagi yoki mehnat munosabatlaridan yuzaga keladigan nizolarning huquqiy tabiati noaniqligicha qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sud amaliyotida ko'pgina muammolarga sabab bo'lmoqda. Gap shundaki, yer to'g'risidagi munosabatlar turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun, yer ajratish yoki yerni zaxiraga olish to'g'risidagi hokimning tegishli qarori yer to'g'risidagi munosabatlar doirasida amalga oshirilgan deb aytish mumkin bo'lsa-da, boshqa tomondan xuddi shu masala ma'muriy-huquqiy munosabatlar doirasidagi nizo deb aytish ham mumkin. Sud amaliyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, shu paytgacha yer ajratish yoki yerni zaxiraga olish to'g'risidagi hokimning tegishli qarori yuzasidan nizolar ma'muriy sudlarda ko'rib chiqilgan.

Nazarimizda, FPK 26-moddasidagi yer to'g'risidagi munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar jumlasini chiqarib tashlash lozim. Zero, yerga oid fuqarolik-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarni umumiy ma'noda fuqarolik-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar sifatida ko'rib chiqishda hech qanday muammo mavjud emas.

FPK 26-moddasidagi mehnat munosabatlari jumlasini ham muammoli jihat hisoblanadi. Gap shundaki, davlat xizmati yoki davlat fuqarolik xizmatiga oid nizolar rivojlangan davlatlar (jumladan, Germaniya, Yaponiya va boshqa)da

ma'muriy sud ish yurituvchi doirasida ko'rib chiqiladi. Chunki davlat xizmati hamda xususiy sektordagi mehnat shartnomalaridan yuzaga keladigan nizolarni bir xil deb aytish noto'g'ri. Bu masalalar bir-biridan keskin farq qiladi. Davlat xizmatida Mehnat kodeksida nazarda tutilgan mehnat shartnomalari tuzilmaydigan sohalar, misol uchun sudya, prokuratura organlari tezkor xodimlari, ichki ishlar va boshqalar ham mavjud. Shunday ekan davlat xizmati bilan bog'liq nizolarni mehnat munosabatlari sifatida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga taalluqli deb aytish xato bo'ladi. Afsuski, bugungi kunda sud amaliyotida davlat xizmati bilan bog'liq nizolar ham mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizo sifatida ko'rilmog'da.

Fikrimizcha, FPK 26-moddasidagi mehnat munosabatlaridan yuzaga keladigan nizolar jumlasiga aniqlik kiritib davlat xizmatiga oid nizolar bundan mustasno ekanligini kiritish lozim. Zero, qabul qilinishi kutilayotgan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasida ham ushbu nuqtayi nazar o'z tasdig'ini topmoqda.

Bundan tashqari, FPK 26-moddasi 1-qism 6-bandidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarning keltirib o'tilishi ham ko'pgina tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Chunki korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan va bunday munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari chegarasini aniqlash qiyin. Misol uchun, korxona rahbarining qandaydir buyrug'i shu korxonada ishlovchi ishchining huquqlarini buzadigan bo'lsa, bunday nizo shundog ham mehnat nizosi sifatida umumiy tartibda ko'rib chiqiladi. Bu holat uchun FPK 26-moddasi 1-qism 6-bandida nazarda tutilgan qoidani o'rnatish talab etilmaydi.

Bundan tashqari, sud amaliyotida davlat muassasalari hisoblangan oliy ta'lim muassasalari bilan talabalar o'rtasidagi o'qishga qabul qilish va o'qishdan chetlatish bilan bog'liq nizolarni ham fuqarolik-huquqiy nizo sifatida tavsiflash qiyindir. Chunki davlat granti asosida o'qishga kiradigan talabalar mavjud bo'ladi yoki o'qishdan chetlatilgan talaba sudga ariza bilan murojaat qilganda univer-

sitet bilan shartnomada nazarda tutilgan shartlar bajarilishi yuzasidan nizolashmaydi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrdagi "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 24-sonli qarorining 7-bandida *"tergov hibsonalari va jazoni ijro etish muassasalari mansabdor shaxslarining ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash haqidagi qarorlari va harakatlari MSiyTK 23-bobida nazarda tutilgan tartibda nizolashilishi mumkin, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksining 542-moddasida nazarda tutilgan tartibda hal qilinadigan masalalar bundan mustasno"*ligi keltirib o'tiladi. Bu o'rinda davlat muassasalari, ya'ni jazoni ijro etish muassasalari bilan mahkumlar o'rtasidagi intizomiy jazo choralari qo'llanilishiga oid nizolar ma'muriy sudlarga taalluqliligi keltiradi. Tabiiy savol yuzaga keladiki, davlat muassasasi hisoblangan oliy ta'lim muassasasining talabaga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazo choralari yuzasidan nizolar nega endi ma'muriy sudga taaalluqli nizo hisoblanmasligi kerak. Nazarimizda, hozirgi sud amaliyoti bu o'rinda ham xatolikka yo'l qo'ymoqda.

Shunga ko'ra, fikrimizcha, FPK 26-moddasi 1-qism 6-bandida nazarda tutilgan qoidani chiqarib tashlash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, iqtisodiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlar yuzasidan ham ayrim muammoli jihatlar mavjud.

Iqtisodiy-prosessual kodeksning (IPK) 25-moddasi 1-qism 1-bandida iqtisodiy sudga iqtisodiyot sohasidagi ma'muriy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlar taalluqli ekanligini keltirib o'tiladi. Bu esa MSiyTK qoidalariga zid. Chunki ma'muriy sudlar aynan ma'muriy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarni ko'rib chiqish uchun alohida tashkil etilgan sudlar hisoblanadi. Jumladan, IPK 27-bobi bo'lmish huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarga e'tibor bersak, ushbu nizolarning aksariyati sof ma'muriy huquqiy nizolar ekanini ko'rish mumkin. Misol uchun, litsenziya va ruxsatnomalar bilan bog'liq nizolar aslida "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risi-

da"gi Qonun 3-moddasiga ko'ra, litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillari ma'muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan amalga oshiradigan ma'muriy-huquqiy faoliyatiga kiradi. Ushbu jihat haqida avval ham aytib o'tgan bo'lsak-da [8], I.M. Salimovanning ilmiy ishlarida ham o'xshash nuqtayi nazarni ko'rishimiz mumkin [9].

Shunday ekan, fikrimizcha, iqtisodiy sudlarga taalluqli ishlar doirasidan *ma'muriy-huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan nizolarga doir ishlarni, jumladan IPK 27-bobi bo'lmish huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarga chiqarish hamda ma'muriy sudlarga taalluqli ishlar sifatida belgilash taklif etiladi.*

Sud amaliyotida bahsli bo'lib kelayotgan yana bir muammolardan biri bu davlat ijrochisining qarori, harakat (harakatsizligi) bilan bog'liq nizolarning sudga taalluqliligi hisoblanadi.

MSiyTK 186-modda 2-qismiga ko'ra, davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlari (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi ariza (shikoyat) manfaatdor shaxsga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida ma'lum bo'lgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida sudga berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni 86-1-moddasiga ko'ra, *"iqtisodiy sud tomonidan berilgan ijro hujjati bo'yicha davlat ijrochisining chiqargan qarori ustidan undiruvchi yoki qarzdor tomonidan ijro hujjatini bergan iqtisodiy sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga, qaror chiqarilganligi haqida xabar qilingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda shikoyat berilishi mumkin. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilmagan hollarda davlat ijrochisining qarori ustidan qaror chiqarilganligi haqida xabar qilingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda davlat ijrochisi joylashgan yerdagi umumiy yurisdiksiya sudiga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, mansabdor shaxsga shikoyat beriladi"*.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrdagi "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 24-sonli qarorining 9-ban-

didada esa *“Davlat ijrochisining qarori, harakatlari (harakatsizligi) ustidan MSIYtK 23-bobida nazarda tutilgan tartibda shikoyat qilinadi, iqtisodiy sud tomonidan berilgan ijro hujjati bo'yicha chiqarilgan qarorlar bundan mustasno”* deb keltirilmoqda.

U borada sud amaliyotida bir-birini inkor etuvchi yondashuvlar yuzaga kelayotganligini ko'rish mumkin. Misol uchun, *iqtisodiy sud tomonidan berilgan ijro hujjati bo'yicha davlat ijrochisining harakat (harakatsizligi) yuzasidan qaysi sudga shikoyat qilinishi mumkin degan savol yuzaga keladi.*

Bu borada, yuqorida keltilgan O'zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risid”gi Qonuni 86-1-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-sonli qarori 9-bandiga nazar tashlasak, bu toifadagi ishlar ma'muriy sudga taalluqlidir. Lekin masalaga bunday yondashish qanchalik to'g'ri va sudga taalluqlilikning qoidalariga muvofiq, degan savol ham yuzaga keladi. Tasavvur qiling, bir ish doirasida davlat ijrochisining qarori yuzasidan nizolar iqtisodiy sudga, xuddi shu ishda davlat ijrochisining harakat (harakatsizligi) yuzasidan nizolar ma'muriy sudga ko'rilsa, sud qarorlarining bir-biriga muvofiqligi va bu toifadagi ishlar yuzasidan yagona sud amaliyoti shakllantirib bo'ladimi? Fikrimizcha, masalaga yondashuvni o'zgartirish lozim. Chunki MSIYtK 186-moddasi 2-qismi mazmunida davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashishga oid ishlar ma'muriy sudlarga taalluqli ekanligini tushunish mumkin. MSIYtKning nisbatan oxirgi qabul qilingan qonun ekanligini nazarga oladigan bo'lsak ham, 2021-yil 20-apreldagi O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonuni 18-moddasi talabiga ko'ra, *“teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovutlar bo'lgan taqdirda, keyinroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat qoidalarini amal qiladi”*.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida”gi Qonuni 86-1-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-sonli qarori 9-bandiga tegishli o'zgartishlar kiritib, davlat ijrochisining qarorini haqiqiy emas, harakatlari (harakatsizli-

gi) yuzasidan nizolashishga oid barcha ishlarning ma'muriy sudlarga taalluqli ekanligini o'rnatib qo'yish lozim [10].

Uchinchidan, harbiy sudlar va ma'muriy sudlar o'rtasidagi sudga taalluqli ishlar yuzasidan ham ayrim muammoli jihatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi O'RQ-703-sonli “Sudlar to'g'risida”gi Qonuni 45-moddasi 1-qismiga ko'ra harbiy sudlarga harbiy boshqaruv organlari qarorlari, harbiy mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqish taalluqliligi keltirib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-sonli qarorining 10-bandida “harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi), shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar chaqiruv komissiyalarining qarorlari ustidan shikoyatlar harbiy sudlar tomonidan ko'riladi” deb aytilsa-da, sud amaliyotida harbiy xizmatchi hisoblanmaydigan fuqarolarning harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashishga oid nizolar qaysi sudlarga taalluqliligi yuzasidan savollar yuzaga kelmoqda.

Nazarimizda, harbiy xizmatchi hisoblanmaydigan fuqarolarning harbiy boshqaruv organlari va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashishga oid nizolar ma'muriy sudlarga taalluqlidir. Chunki bu o'rinda harbiy xizmatchi yo'q va munosabat ma'muriy-huquqiy munosabat hisoblanadi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, ma'muriy sudlar mamlakatimizda nisbatan yangi sudlar hisoblangani bois, sudlovga taalluqlik borasida yuqorida tahlili keltirilgan masalalar muhim ahamiyat kasb etadi va kelgusida ham bu boradagi qonunchilik, sud amaliyoti hamda ma'muriy sudlovning nazariy asoslarini takomillashtirib borish muhim hisoblanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son Farmoni [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4966 of February 21, 2017 "On measures to radically improve the structure and efficiency of the judicial system of the Republic of Uzbekistan"]. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 29.09.2017, no. 06/17/5195/0033/.
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'RQ-457-son Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-457 of January 8, 2018 "On Administrative Procedures"]. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 09.01.2018, no. 03/18/457/0525.
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksini tasdiqlash haqida"gi O'RQ-462-son Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-462 of January 25, 2018 "On approval of the Code of Administrative Procedure of the Republic of Uzbekistan"]. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 26.01.2018, no. 03/18/462/0626.
4. Nematov J. Some issues of perception, interpretation of administrative law and legal education in modern Uzbekistan. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of legal sciences*, 2019, no. 1, pp. 96-102.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-son Farmoni [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6034 of July 24, 2020 "On additional measures to further improve the work of courts and increase the efficiency of justice"]. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 24.07.2020, no. 06/20/6034/1103.
6. Nematov J., Astanov Sh. O'zbekistonda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishni isloh qilish masalalari [Issues of reforming the judicial process of administrative offenses in Uzbekistan]. *Huquqiy tadqiqotlar jurnali – Journal of Legal Studies*, 2020, no. SI2, pp. 359-364.
7. Nematov J. Administrativnoye sudoproizvodstvo v Respublike Uzbekistan i Yaponii: sravnitelno-pravovoy analiz [Administrative law enforcement in the Republic of Uzbekistan and Japan: comparative and legal analysis]. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Oliy o'quv kurslari axborotnomasi – Bulletin of Higher Education Courses of the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan, 2017, no. 1 (29), pp. 23-25.
8. Nematov J. Ma'muriy sud ish yurituvda sudlovga taalluqlilik [Judicial relevance in administrative proceedings]. *Odillik mezonlari – Criteria of fairness*, 2020, no. 6. p. 48.
9. Salimova I.M. Iqtisodiy nizolarning taalluqliligi (nazariy-huquqiy va prosessual jihatlar). *Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati* [Relevance of economic disputes (theoretical, legal and procedural aspects). Abstract of the doctoral dissertation in law]. Tashkent, 2020, p. 22.
10. Nematov J. New administrative law reforms in Uzbekistan: problems and their solutions. *International Cooperation Department Research and Training Institute Ministry of Justice, Japan, ICD News*, 2018, no. 75 (6), pp. 29-38.
11. Nematov J. Administrativnaya yustisiya v Respublike Uzbekistan, Rossiyskoy Federatsii i Yaponii: sravnitelno-pravovoy analiz. *Konstitutsiya Rossiyskoy Federatsii i eyo vliyaniye na praktiku gosudarstvennogo stroitelstva i razvitiye pravovoy sistemi strani. Ser.: Yubilei, konferen- sii, forumi. Vip. 9: Materiali Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii, posvyashennoy 55-letnemu yubileyu yuridicheskogo fakulteta Voronezhskogo gosudarstvennogo universiteta. Voronej, 17–18 oktabrya 2013 g. Pod red. Y. N. Starilova* [Administrative justice in the Republic of Uzbekistan, the Russian Federation and Japan: a comparative legal analysis. The Constitution of the Russian Federation and its influence on the practice of state building and the development of the legal system of the country. Series: Anniversaries, conferences, forums. Vol. 9. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference Dedicated to the 55th Anniversary of the Faculty of Law of Voronezh State University. Voronej, October 17–18, 2013, Ed. Y. N. Starilova]. Voronezh, VSU Publishing House, 2014, pp. 189–201.
12. Nematov J. Transformation of Soviet administrative law: Uzbekistan's case study in judicial review over administrative acts. *Administrative law and process*, 2020, no. 1 (28), pp. 105–125. DOI: <https://doi.org/10.17721/2227-796X.2020.1.08/>.
13. Nematov J. Saylov qonunchiligiga oid sud ishlarini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari [Peculiarities of electoral law proceedings]. *Odil sudlov jurnali – Journal of Justice*, 2019, no. 11, pp. 12-16.
14. Nematov J. Fuqaroning ma'muriy sudga shikoyat qilish huquqi cheklanishi mumkinmi (sudlovga taalluqlilikning ayrim jihatlarini tahlili) [Can a citizen's right to appeal to an administrative court be restricted (analysis of some aspects of jurisdiction)]. *Huquqiy tadqiqotlar jurnali – Journal of Legal Studies*, 2020, no. S4, pp. 212–224.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

I QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.